

TA'LIM MUASSASALARIDA "KELAJAK SOATI" DARSLARI DOIRASIDA QATAG'ON QURBONLARI HAYOTI VA FAOLIYATIGA DOIR TARG'IBOT SSENARIYSI

**2-mavzu: "Buxoro jadidlarining ilg'or qarashlari va vatan ozodligi
yo'lidagi kurashlari"**

Dars maqsadi:

Annotatsiya: Mazkur dars "Buxoro jadidlarining ilg'or qarashlari va vatan ozodligi yo'lidagi kurashlari" mavzusiga bag'ishlanib, XX asr boshlarida Buxoro amirligida shakllangan jadidchilik harakatining maqsad va mohiyatini yoritadi. Unda jadidlarning ta'limni isloh qilish, millatni ma'rifatga yetaklash, zamonaviy taraqqiyot g'oyalari joriy etish borasidagi ilg'or qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja va boshqa ma'rifatparvarlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi faol ishtiroklari, ozodlik va taraqqiyot yo'lida ko'rsatgan jasorati yoritib beriladi. Jadidlarning tezis, dastur va islohotlar orqali Buxoro jamiyatini yangilashga qaratilgan sa'y-harakatlari, ularning ayrimlari uchun hayotlarini ham qurbon qilishga tayyor bo'lgan qat'iyati ushbu mavzuning asosiy g'oyasini tashkil etadi. Dars yakunida jadidchilik merosining bugungi mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga ta'siri va ularning g'oyalari hozirgi avlod uchun qanday ahamiyat kasb etishi haqida xulosa chiqariladi.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarga Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati haqida ilmiy asoslangan holda tushuncha berish.
2. O'quvchilarga Buxoro jadidlarining ma'rifiy, insonparvarlik g'oyalari hamda ularning xalq savodxonligini oshirish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni haqida bilim berish.
3. O'quvchilarda vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'z tarixiga hamda milliy qadriyatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirish.
4. O'quvchilarga jadid bobolarimizning jasorati, xalqparvarligi, zamonaviy dunyoqarashi kabi fazilatlarni ibrat sifatida ko'rsatish.

Asosiy g'oyalar: "Buxoro jadidlarining ilg'or qarashlari va vatan ozodligi yo'lidagi kurashlari" mavzusidagi mazkur darsda Buxoro jadidlarining millatni uyg'otish, o'zligini anglatish va ozodlikka chorlash yo'lida ko'rsatgan ulkan xizmatlari yoritilgan. Buxoro jadidlari nafaqat pedagog, yozuvchi yoki siyosiy arbob sifatida, balki xalqning qalbiga nur olib kirgan, uning tafakkurini o'zgartirishga harakat qilgan ma'rifatparvar zotlar sifatida tarixda o'z o'rniga ega. Ular ilm-ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining bosh kuchi deb bilgan, xalqni kuch

bilan emas, aynan bilim va ong orqali ozod qilish mumkinligini ta'kidlaganlar. Buxoro jadidlarining ilg'or fikrlari tufayli ta'lim va madaniyatda yangi bosqich boshlandi, savodxonlik oshdi, milliy uyg'onish jarayoni jadallashdi. Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja kabi jadidlarning siyosiy va ma'rifiy faoliyati Vatan ozodligi, milliy g'ururni tiklash va xalqni ezgu maqsadlar sari yetaklashga qaratilgan edi. Ularning kurashi mustamlakachilikka qarshi fikriy qarshilikning yorqin namunasi bo'lib, bugungi kunda ham yosh avlod uchun ibrat, ma'naviy kuch va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

- O'quvchilar Buxoro jadidlarining ilg'or qarashlari va ma'rifatparvarlik faoliyatining mohiyatini angelaydi, uning tarixiy ahamiyatini tushunadi.
- Jadidlarning ozodlik, ma'rifat va insonparvarlik g'oyalarini fikran tahlil qilib, ularning merosidan ibrat olish zarurligini chuqur idrok etadi.
- O'quvchilarda milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va vatanparvarlik tushunchalari rivojlanadi.

2. Hissiy va qadriy:

- Jadidlarning jasorati va vatanparvarlik ruhidan ilhomlangan holda, o'quvchilar qalbida mas'uliyat, axloqiy poklik, milliy o'zlik va Vatanga sadoqat tuyg'ulari mustahkamlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- O'quvchilar ma'rifat, vatanparvarlik, jasorat kabi qadriyatlarga nisbatan ongli yondasha boshlaydi.
- O'quvchilar jadidchilik harakatining faoliyati, uning yuzaga kelish sabablarini mustaqil tahlil qila oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- O'quvchilar Buxoro jadidlari faoliyati orqali ijtimoiy adolat, ma'rifat va xalq xizmatida bo'lish g'oyalarini angelaydi hamda jamiyat oldidagi shaxsiy mas'uliyatini tushunadi.
- Tarixiy saboqlar asosida o'quvchilar maktab, oila va jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilishga intiladi.
- O'quvchilarda milliy meros, qadriyatlar va tarix haqida chuqur tushuncha shakllanadi, milliy iftihor tuyg'usi mustahkamlanadi.

Metapredmet: bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

- **Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi:** O‘quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi hamda ularni zamonaviy hayot bilan bog‘laydi.

- **Fuqarolik qadriyatlariga asoslangan dunyoqarash shakllanadi:** O‘quvchilar jadidlar faoliyatidan ibrat olib, o‘z shaxsiy hayotiga ijtimoiy foydali xatti-harakatlarni tadbiq qilishga intiladi.

- **Jamoadi ishlash va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi:** Guruhli topshiriqlar, fikr almashish orqali hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

- **Axborotni qidirish va uni baholash:** Ma‘lumotlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va tegishli joyda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi:

1 qism. Motivatsion.

Darsning birinchi qismining maqsadi - o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. O‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy.

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma‘nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriyl materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi. O‘quvchilarga Jadidchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati, jadid bobolarimizning ilm-ma‘rifat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida ma‘lumotlar beriladi. Jadid bobolarimizning merosidan bugungi kunda unumli foydalanish haqida ko‘nikmalar shakllantiriladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.

KIRISH. MOTIVATSION QISM.

O‘qituvchi: “Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimizni boshlashdan avval sizlardan shuni so‘ramoqchiman: agar bir jamiyatda ilm cheklansa, yangilikka yo‘l berilmasa, odamlar faqat eski tartiblar bilan yashashga majbur qilinsa - o‘sha yurtida taraqqiyot bo‘lishi mumkinmi?”

Bundan bir asr oldin Buxoro amirligida hayot aynan shunday edi: maktablar oz, adolat tarozisi bir tomonlama, yangicha fikrlar esa xo‘jako‘rsinga emas, hatto xavf deb qaralardi. Shunday sharoitda bir guruh jasur, ma‘rifatli va vatanparvar ziyolilar xalqning qalbiga yorug‘lik olib kirishga bel bog‘ladilar. Ular Buxoroda ilmni yoyish, jamiyatni uyg‘otish, xalqni jaholat uyqusidan uyg‘otish kerak, deb ishonishardi.

Bu insonlar - Buxoro jadidlari edi. Ular yangi maktablar ochdilar, eski usuldagi ta‘limni o‘zgartirishga harakat qildilar, gazeta va risolalar nashr qildilar, xalqning erkin fikrlashi, o‘z taqdiri uchun qayg‘urishi, ozodlik haqida o‘ylashi zarur deb hisobladilar.

Ammo ular bosib o‘tgan yo‘l oson bo‘lmadi. G‘oyalari uchun ta‘qib qilindilar, qarshilikka uchradilar, ayrimlari hayotidan ham ayrildi. Bugungi darsimizda biz ushbu ma‘rifatparvarlarning qanday islohotlarni amalga oshirgani, qanday g‘oyalarni ilgari surgani va nega siyosiy zulm qurboniga aylanganini birgalikda ko‘rib chiqamiz.”

O‘qituvchi: “Aziz o‘quvchilar, sizlardan shuni so‘ramoqchiman: Agar bir xalq ilimli bo‘lsa, o‘z tarixini bilsa, yangilikdan qo‘rqmasa - bu o‘sha xalqning kelajagiga qanday ta‘sir qiladi, deb o‘ylaysiz?”

O‘quvchilar: Javob berishadi.

O‘qituvchi: “Ha, juda to‘g‘ri ta‘kidlab o‘tdingiz. Ilm - xalqni kuchli qiladi. O‘tmishni anglash - kelajakni to‘g‘ri qurishga yordam beradi. Buxoro jadidlari ham aynan shunday ishonch bilan yashaganlar edi. Ularning maqsadi xalqni savodli qilish, jamiyatni isloh etish, nihoyat - Vatan ozodligini ko‘rish edi.

Keling, endi Buxoroda shu nurli g‘oyalarni yoygan, xalqni yangi hayotga boshlagan jadid bobolarimizning kim bo‘lishganini va ular qanday tarixiy iz qoldirganini yaqinroq o‘rganamiz.”

ASOSIY QISM. BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

O‘qituvchi: Buxorodagi islohotchilik harakati ilg‘or g‘oyalar ta‘sirida XX asr boshlarida vujudga keldi. Taraqqiyparvar milliy ziyolilar Rossiyaga mustamlaka bo‘lgan bu o‘lkaning umumjahon taraqqiyotidan tobora ortda qolayotgani, iqtisodiy, diniy, ma‘naviy sohada yuzaga kelgan turg‘unlikni anglab, keng ko‘lamli islohot yo‘lida kurash boshladi.

Buxorodagi islohotchilik harakati murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Ko'hnada zaminda jadidchilikning vujudga kelishida XX asr boshlarida Rossiya, Eron, Turkiyada kechgan inqilobiy harakatlar, amirlikdagi ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, islohotchi sifatida maydonga chiqib, Buxoroda faoliyat yuritgan jadidchilik harakatining namoyondalaridan kimlarni bilasizlar? Qani menga aytingchi.

O'quvchilar: O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: To'g'ri javob berdilaringiz. Sizlarning fikrlaringizni davom ettirgan holda shuni aytmoqchimanki, XX asr boshlarida Buxoro amirligida ma'rifat, adolat va taraqqiyot g'oyalarini ilgari surgan jadid ziyolilari elni uyg'otish, jamiyatni yangilash yo'lida jonbozlik ko'rsatdilar. Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining asosiy nazariyotchisi sifatida ta'lim islohoti, milliy o'zlik va erkinlik g'oyalarini targ'ib etdi. Sadriddin Ayniy yangi usul maktablari tashkil etib, Buxoroda savodsizlikka qarshi kurashdi hamda xalqni ma'rifatga chorlovchi asarlar yaratdi. Usmonxo'ja va Fayzulla Xo'jayev 1920-yildan keyingi davrda Buxoro Xalq Sovet Jumhuriyatining tashkil topishida faol ishtirok etib, davlat boshqaruvida jadid g'oyalarini amalga oshirishga harakat qildilar. Jadidlarning umumiy faoliyati Buxoro jamiyatini zamonaviy taraqqiyot sari yetaklash, xalqni ilmga, uyg'onish va ozodlikka da'vat etishga qaratilgan bo'lib, ular millat ravnaqi uchun fidoyilik bilan kurashgan tarixiy shaxslardir.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar sizlarga bir nechta savol bilan murojaat etmoqchiman.

- Sizningcha, Buxoro jadidlarining asosiy maqsadi nimadan iborat edi?
- Nega jadidlar avvalo ta'limni isloh qilishga katta e'tibor qaratganlar?
- Amirlikdagi eskicha boshqaruv jamiyat taraqqiyotiga qanday to'siq bo'lib turgan edi?

- Jadidlar o'z g'oyalarini xalq orasida qanday tarqatganlar?

O'quvchilar: O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar Buxoro jadidlarining faoliyatlari haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'ldingiz. Keling, endi ularning faoliyati bilan kengroq tanishin chiqsak.

ASOSIY QISM.YANGI TAFAKKUR SARI: BUXORO JADIDLARINING JAMIYATNI O'ZGARTIRISHDAGI ROLI

O'qituvchi: Buxoroda "usuli jadid" maktablarida matematika, geografiya, tabiiy fanlar, tarix, ona tili va zamonaviy dunyo ilmlarini ham o'rgatish yo'lga qo'yilgan edi. 1910-1912 yillarda Buxoro hududida bu kabi jadid maktablari soni sezilarli darajada oshgan: taxminan 50-60 ga yaqin maktab faoliyat yuritgani qayd

etiladi. Biroq eski tuzum va konservativ ruhoniylar qatlamlarning qarshiligi tufayli ko'plab maktablar yopilgan, jadidlar tomonidan tashkil etilgan "yangi usul" maktablariga qarshi bosim bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramay, jadidlar ta'lim islohoti, ma'rifat targ'iboti va yangi maktablar orqali Buxoro jamiyatida - ijtimoiy ong, madaniy uyg'onish, ta'lim va bilimga intilish kabi ijtimoiy jarayonlarni boshladilar.

XX asrning boshlarida Abdulvohid Burhonov yangi usuldagi maktab ochish uchun harakat qila boshlagan. Buxorodagi dastlabki jadid maktabining ochilishi ham uning nomi bilan bog'liq. Samarqandga borib, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shukuriydan yangi usul maktablarida o'qitish tajribasini o'rgandi. Abduqodir Shakuriy maktabidan o'rnak olib, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Ahmadjon Hamdiy va Hamidxo'ja Mehriy kabi taraqqiyparvarlar 1908-yil 23-oktabrda Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy (tojik) tilda ta'lim beruvchi jadid maktabi ochadilar. Mirzo Abdulvohid Munzim 1909-yilda esa katta yoshdagilar uchun kechki maktab tashkil qiladi. Mirzo Abdulvohid yangi maktabning afzalliklarini ko'rsatish maqsadida 1908-yilda ota-onalar, din arboblari va amaldorlarni xususiy maktabiga taklif qilib, bolalarning ko'rgazmali imtihonini o'tkazadi. Buxoroning muftilaridan biri bo'lgan mullo Ikrom boshchiligidagi guruh yangi maktab faoliyatini yuksak baholab, ularning tarmog'ini kengaytirishni, hatto madarsa ta'limini ham shu usulga ko'chirishni tavsiya etgan.

Maktab asoschilari yangi maktabda samarali o'qitishni tashkil etish uchun darslik, qo'llanma va adabiyotlarga zarurat mavjudligini inobatga olib, 1909-yil mart oyida "Shirkati Buxoroyi sharif" ("Buxoroyi sharif shirkati")ga asos soladilar. Ushbu shirkatning a'zolari 9 kishi: Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy, Ahmadjon Maxdum (Hamdiy), Aminjon Maxdum, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Hamidxo'ja Mehriy, Mulla Nizom Sobitiy, Abdurahmon Sa'diy va Mirzo Abdulqodir Muhiddinovlardan iborat bo'lgan. Natijada, maktab o'quvchilari uchun bir qancha darslik va qo'llanmalar nashr etiladi.

Tez fursatda xalq orasida obro' qozongan Sadridin Ayniy va Abdulvohid Munzim maktabi Buxoroning mutaassib ulamolari qarshiligiga uchraydi. Hukumatning aralashuvi bilan 1909-yili maktab faoliyati to'xtatiladi. Bunday vaziyatda jadidlar maorifni isloh qilishga oid dasturlarining keyingi bosqichlarini amalga oshirishga kirishadilar. Sadridin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar 1909-yilda "Tarbiyayi atfol" jamiyatini tuzish ishlarida bosh-qosh bo'ladilar. Jamiyat tarkibiga 28 nafar a'zo kiritilgan bo'lib, ular quyidagi ishlarni amalga oshirishga kirishdilar:

Birinchidan, ilmga chanqoq yoshlarga har jihatdan: ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatib, Turkiya hamda Rossiyaning Qozon, Ufa, Bog'chasaroy shaharlariga o'quvchilarni yuborishni amalga oshira boshladilar.

Ikkinchidan, Turkiya, Eron hamda Rossiya musulmon shaharlarida nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borishga kirishishdi.

Uchinchidan, "Tarbiyayi atfol" jamiyati a'zolari ham o'rinsiz sarf-xarajatlarga, to'y va ma'rakalarga sarf qilinadigan katta-katta xarajatlarga, isrofgarchiliklarga qarshi chiqdilar. Bunday mablag'larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o'qitish uchun sarf qilishga da'vat etdilar.

To'rtinchidan, jamiyatining tashabbusi bilan 1912-yil 11-martdan Yangi Buxoro (Kogon)da fors-tojik tilida "Buxoroyi sharif" gazetasi chop etila boshlandi. 1912-yilning 11-martidan 1913-yil 12-yanvargacha 153 soni chiqdi.

1910–1917-yillarda faoliyat olib borgan jamiyat ma'rifatparvarlik ishlari, yangi usul maktablarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish uchun kurashgan bo'lsa, 1917-yilga kelib siyosiy tashkilot tusiga kirdi.

Buxoro amirligida islohotchilik harakatining vujudga kelishida asl kasbi savdogar, tabib bo'lgan Mirzo Sirojiddin hakim Buxoriyning ham alohida o'rni bor. Dunyo kezgan, rivojlangan davlatlardagi taraqqiyotni o'z ko'zi bilan ko'rgan Mirzo Sirojiddin o'z vaqtida Buxoro jamiyatidagi muammolarga munosabatini bildirdi va ularni bartaraf etishga oid taklif-tavsiyalarini taqdim etdi. Mirzo Sirojiddin 1877-yil 23-oktabrda Ismoilxo'ja otaliq mahallasida (hozirgi Mehtar Anbar ko'chasi) Hoji Abdurauf Mirzoxurdboy savdogar oilasida dunyoga kelgan. Mirzo Sirojiddin 1906-yil Eronga boradi va Tehron shahridagi amerikacha tibbiyot kollejiga o'qishga kirgan. O'qishni tamomlagach, kollejdagi o'qituvchilik qiladi, birozdan so'ng Mozandaron shahar kasalxonalarining birida shifokorlik faoliyatini boshlaydi va tez orada "doktor Mirxon" nomi bilan mashhur bo'ladi. 1909-yilda o'z yurtiga qaytgan Mirzo Sirojiddin Buxoro shahrida zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi xususiy shifoxona ochgan va umrining oxiriga qadar, tabiblik qilgan. Shifoxonasi haqida "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalarida reklama e'loni berib, tibbiy maslahat va davolashni boylar uchun 3 tanga, o'rta hollar uchun 2 tanga va kambag'allar uchun 1 tanga etib belgilab qo'yganini qayd qilgan.

Mirzo Sirojiddin tabiblik qilish bilan birga sog'liqni saqlash, jamiyatdagi muammolar va ularni bartaraf etishga oid takliflari aks etgan maqolalar yozgan hamda 1912–1913-yillarda "Buxoroi sharif", "Samarqand" gazetalarida va "Oyna" jurnalida e'lon qildirib borgan. Uning maqolalarida ilm-fanni rivojlantirish va bola tarbiyasi masalalari yetakchilik qilgan.

Mirzo Sirojiddin o'zining "Buxoroi sharif" gazetasida chop qilingan "Bir oz faoliyat lozim" nomli maqolasini: "Ba'zida ko'zimizni ochib o'tgan zamonlarga nazar tashlasak, biz ilm va oliy fanlardan ilg'or millat edik va bir necha

millatlarning harakatga kelishiga hissa qo'shganmiz", jumalari bilan boshlaydi. Jahon ilm-fani rivojiga hissa qo'shgan mutafakkirlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, imom Al-Buxoriy, shoir Rudakiylarni tilga olib, ularni o'z asrining yagonasi va durdonasi, deb ataydi. Buxoroning hozirgi ahvolidan afsuslanib: "Bas, hozirgacha bizga nima bo'libdiki va nima monelik qilmoqdaki, bizning ko'zlarimiz hozirgi ilm fanni ko'rish u yoqda tursin avvalgi ilm fandani ham yopiq qolmoqda", deydi. Buxoroda sanoat korxonalari, tijoratxonalar va shirkatlar ochish zarurligini, tibbiyot ilmini rivojlantirib, sog'likni saqlashga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi.

Mirzo Sirojiddin Buxorodagi kutubxona va qiroatxonalarni ham isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratib, ularning zamon talabiga javob bermasligini tanqid qiladi va yevropacha tipda qayta qurishni tavsiya qiladi. Chet el kutubxonalarida Buxoroda yozilgan kitoblarni ko'rganini bildirib: "Ovro'po kutubxonalarida bizning ilmiy kitoblarimiz nihoyatda ko'pdir. Ularni ehtirom yuzasidan sandiqlarga asrab qo'yganlar va ko'pchiligini o'z tillarida tarjima qilganlar. Hozirgi vaqtda bu kitoblarni biron-bir madrasalarimizdan topib bo'lmaydi. Bularning umuman yo'q bo'lib ketganligining boisini bilmadim", - deb hayratlanadi. Mirzo Sirojiddin yurt kelajagi bo'lgan bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U bolaga tarbiya berish uchun eng avvalo onalarning tarbiyasi va ilmi bo'lishlarini shart ekanligini ta'kidlab: "Bola tarbiyasiga bir lahza ham g'afolatda qolmaslik kerak. Ularda yaxshi xislat va fazilatlarni shakllantirish zarur, yoshligidan bolaga ilm berish farz, chunki yoshlikda olgan tarbiya va bilim nihoyatda mustahkam bo'ladi", - deb yozadi. Bolani erta maktabga berishni rad etib: "Farzand 7 yoshga to'lishi bilan unga ilm, odob va kamolot kasbini o'rgatish kerak, unga turmush qoidalari, odamiylik qonunlari va maosh to'g'risida xabar berish shart. Har kim bolasini tarbiyasiz qoldirsa, zotining saodat gavhari o'smay... baxtsiz bo'lib qoladi", - deb uqtiradi.

Jadid ma'rifatparvarlari qayerda faoliyat yuritishmasin, yosh avlodning ta'lim olishiga e'tiborsiz qarab tura olishmagan. Ta'qiblar sabab, Toshkentga ketishga majbur bo'lgan Sadridin Ayniy 1920-yil sentabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, shu yilning 17-oktabrida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif Noziri Qori Yo'ldosh Po'latov nomiga xat yozib, unda Buxoroda yangi usuldagi maktablar tashkil qilish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bayon qiladi. Ayniy maktablarni ochishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik; o'quvchilarning ota-onalari orasida juda ehtiyotkorlik bilan tushuntirish ishlarini olib borish; qabul qilinadigan o'quvchilarning son va sifatiga alohida e'tibor berish; maktabda dars beruvchi muallimlarni tayyorlash uchun Moskva, Qozon, Orenburg, Boku, Toshkent va boshqa shaharlardan tajribali o'qituvchilarni taklif etish; muallimlar tayyorlash kurslariga 30 yoshgacha bo'lgan iste'dodli, aqlli

kishilarni jalb qilish bo'yicha o'z takliflarini taqdim qilgan. Ayniy darsliklar masalasida ham alohida to'xtalib: "Turkistonda yangidan nashr qilingan kitoblar qo'lga kiritmoq ila barobar qanoat qilaturgan bir darajada til va imlo jihatidan Buxoro o'zbeklariga muvofiq emasdir, xususan so'z ta'limi jihatdan ham ko'p mushkilotlarga uchrash mumkin. Chunki, ko'pchilik nashr qilaturgan darsliklar usmonli turklar, tatarlar va chig'atoy shevalari asosida yozilgan bo'lib, hatto turkistonlik mahalliy o'quvchi bolalar uchun ham bu kitoblarning tili og'irlik qiladi", deb yozadi maktubida.

Xalqqa ziyo tarqatish ishida Buxoro jadidlaridan Usmon Xo'janing ishi ham beqiyosdir. U "Shirkati Buxoroyi Sharif" jamiyati homiyligida iste'dodli yoshlar safida yangi usul maktablari bilan yaqindan tanishish uchun Bog'chasaroy va Istanbulga jo'natiladi. Usmonxo'ja 1909-yilda Bog'chasaroyda Ismoilbek G'aspiarali yonida bir yil turib, Qrimdagi jadid maktablaridagi yangi ta'lim-tarbiya tizimi va uslubini kuzatib, chuqur o'rganadi. Usmonxo'ja 1913-yilda Turkiyadan o'z yurtiga qaytib, Buxoro shahrida amakivachchasi, yirik savdogar Latifxo'ja uyida jadid maktabi ochadi. Sadriddin Ayniyning ma'lumot berishicha, 1913-yilda Usmon Xo'ja maktabining o'quvchilari asosan o'zining qarindoshlari bo'lib, keyinchalik ko'plab otalar farzandlarini bu maktabga o'qitish uchun olib kelganlar. O'sha yilning yozida maktab o'quvchilari sonining ko'payishi natijasida Usmon Xo'ja boshqa binoni ijaraga oladi va ikkita yordamchi o'qituvchi bilan bolalarga tahsil bera boshlaydi. 1914-yilda o'quvchilar soni 200 ga yetgani sababli Usmon Xo'ja maktabni o'z uyiga ko'chiradi.

Usmon Xo'ja maktabida bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo'lish, bir kunda 4-5 soatdan ortiq dars o'tmaslik, har bir darsdan so'ng o'n daqiqalik tanaffus joriy qilish, diniy va dunyoviy fanlarni barobar o'qitish, har yili bolalarga ikki oylik ta'til berish, o'quvchilardan vaqti-vaqti bilan imtihon olib turish kabi yangi tartiblar joriy qilingan. Dars jarayonlarida milliy o'quv qo'llanmalar va darsliklardan tashqari, Turkiyadan olib kelgan o'quv qurollari, globus, xaritalar, turk tiliga tarjima qilingan Yevropa adabiyotlaridan ham keng foydalanilgan.

Ko'p jadidlar singari, Fayzulla Xo'jayev o'sha davrda ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqalishida asosiy o'rinni egalladi. Fayzulla Xo'jayev otasidan qolgan boylikni yangi usul maktablari ochish va "Yosh buxoroliklar" partiyasining siyosiy faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlashga sarfladi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilinganidan so'ng barcha sohalarida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Qisqa muddat ichida Buxoroda demokratik islohotlar joriy qilindi. Hukumat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lgan aholi maishiy turmushini yaxshilash bilan bog'liq ishlar shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga ham turtki bo'ldi. Hukumat Buxoro ko'chalariga tosh yotqizish, transport yo'llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Buxoro ijtimoiy infratuzilmasini yo'lga qo'yish maqsadida, Berlin va Moskva shaharlaridan tibbiy jihozlar keltirilib, shifoxonada rentgen qiluvchi, ko'z kasalliklarini davolovchi va boshqa yangi tibbiy xonalar tashkil qilinadi. Fayzulla Xo'jayev asos solgan yangi maktablar an'anaviy madrasalar bilan ta'lim metodlari va yo'nalishlari jihatidan farqlanar edi. Jumladan, ularda zamonaviy fanlar, xorijiy tillar hamda fanlarni o'qitishning yangi pedagogik usullari joriy etilgandi.

Ayni ta'lim islohotlarida Abdurauf Fitratning ham hissasi katta edi. Fayzulla Xo'jayevning taklifi bilan Toshkentda pedagogik va ijodiy faoliyat bilan qizg'in shug'ullanayotgan Abdurauf Fitrat Buxoroga keladi. Buxoro xalq dorilfununi ochilishi to'g'risida tarixiy qaror qabul qilindi. Ma'lumki, mamlakat uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar zarur edi. Yangi ochilgan Toshkentdagi Turkiston davlat universitetidan esa Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi o'zbek o'qituvchilari siqib chiqarilgan, mahalliy yoshlar uchun turli-tuman to'siqlar avjiga chiqmoqda edi. Shunday tahdidli davrda ma'rifatparvarlar birlashib, Toshkentdagi "Ko'mak", Buxoro Xalq jumhuriyati homiyligida ellikdan ortiq, iqtidorli yoshlarni Germaniyaga o'qishga yubordilar. Bu ezgu tashabbusning boshida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, ayniqsa, Fayzulla Xo'jayev jonbozlik ko'rsatgan edi.

Jadidchilik harakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri - Abdurauf Fitrat 1909-yilda Istambulda nashr etilgan "Munozara" asarida Buxoro amirligi idorasiga ma'lum islohot - o'zgarish kiritish g'oyasi va "Usuli jadid" deb nomlangan yangi maorif tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat butun vujudi, otash va jo'shqin yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan mamlakat yoshlarini rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi. Fitratning "Hind sayyohining qissasi" asari ham 1912-yilda Istambulda nashr etilgan bo'lib, bunda Buxoro amirligiga ma'lum darajada o'z e'tiroznomasini bayon etadi. Bir zamonlar ilm va din quvvati bo'lgan Buxoro, nega tanazzulga yuz tutdi? Xar kuni bir Abu Ali Ibn Sino, Farobiy va boshqalarni jahonga hadya etgan yurt nima sababdan bunchalar abgor xolga tushib qoldi? Bu qorong'u zulmatdan qutulish yo'li bormi? - deya savollar berar ekan, javob sifatida ma'rifatni ko'rsatadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, ko'rib o'tganimizdek Buxoro jadidlari, jumladan, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Usmon Xo'ja va boshqa ma'rifatparvarlar - o'z hayoti va ilmiy faoliyatlari davomida Buxoroda yangi usuldagi maktablarni tashkil etib, xalqni ma'rifatga chorlash, ta'lim tizimini yangilash, jamiyatda ijtimoiy ong va madaniy uyg'onish jarayonini ko'tarishga harakat qildilar. Jadidlar ta'lim va ilmga bo'lgan muhabbatni yosh avlodga yetkazish orqali tarixiy xizmat ko'rsatdilar.

Aziz o'quvchilar sizlarga bir nechta savol bilan murojaat qilmoqchiman.

- "Usuli jadid" maktablarida qaysi fanlar o'qitilgan?

- Buxoroda jadid maktablari nega bosim ostiga tushgan?
- Abdulvohid Burhonov va Sadriddin Ayniy maktab ochishda qanday yangi usullarni joriy qilgan?
- “Tarbiyayi atfol” jamiyatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat edi?

O‘quvchilar: Javob berishadi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, jadid ma’rifatparvarlarining amalga oshirgan ishlari bilan tanishib chiqdik. Keling, ularning nima faoliyat bilan shug‘ullanganliklarini qay darajada o‘zlashtirganliklaringizni aniqlash maqsadida quyidagi jadvalni to‘ldirsak.

T/r	Jadid ma’rifatpari	Amaalga oshirgan faoliyati
1	Fayzulla Xo‘jayev	
2	Usmon Xo‘ja	
3	Sadriddin Ayniy	
4	Abdurauf Fitrat	
5	Mirzo Sirojiddin	
6	Abdulvohid Burxonov	

ISLOHOT ORZUSIDAN QATAG‘ON KULFATIGACHA: BUXORO JADIDLARINING FOJIALI TAQDIRI

Fayzulla Xo‘jayev taqdiri o‘ziga fikrdosh ziyolilar bilan bir xil kechdi. 1937-yil qamoqqa olingach, u “hokimiyatga qarshi aksilsovet o‘ng trotskiychi blok faoliyatiga qo‘shilgan”lik hamda “Milliy ittihad” yashirin tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, “bosmachilik” harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlikda ayblandi.

Abdurauf Fitrat 1937-yil 24-aprel kuni qamoqqa olingan va salkam bir yarim yilga cho‘zilgan tergov va qiynoqlardan so‘ng Fitrat “aksilinqilobiy millatchilik jadidchilikning asoschilaridan, rahbarlaridan biri”, “sovet hokimiyatining birinchi kunlaridan tortib, so‘nggi kunlargacha partiya va sovet hukumatiga qarshi millatchi panturkchi aksilinqilobiy harakatni faol uyushtirib kelgan” kishi sifatida, shuningdek, Fayzulla Xo‘jaev ko‘rsatmasiga suyanib, sovet hukumatini kuch bilan ag‘darib tashlash maqsadida Angliyaning Afg‘oniston va Erondagi vakillari bilan yashirin harbiy-siyosiy shartnomalar tuzganlik, bosmachilikni tashkil qilganlik, Turkiyadan Anvar Poshoni boshlab kelganlik, fashistlar Germaniyasining josuslik tashkilotlari, chet ellarga ketgan muhojirlar bilan aloqa o‘rnatganlikda ayblangan.

SSSR Oliy sudi harbiy hay'ati Fitrat "ishi"ni 1938-yil 4-oktyabrda ko'chma sessiyada ko'rib chiqqan va u shu kuniyoq Toshkent atrofida otib tashlangan. Sud qarori 1938-yil 5-oktyabrda rasmiylashtirilgan.

Bundan tashqari, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, 1920–1921-yillari BXSr MIK raisi lavozimida ish olib borgan Ahmadjon Abdusaidov Hamdiy ham 1937-yil 9-sentyabr kuni Toshkent shahrida hibsga olingan. 1937-yil 14-oktyabrda NKVD qoshidagi maxsus "uchlik" tomonidan Ahmadjon Abusaidov ham "oliy jazo"ga hukm qilingan va otib o'ldirilgan. Ammo o'g'li Anvar Ahmedovning 1956-yilda 29-iyulda Leningrad shahridan SSSR IIVga yozgan arizasiga Ahmadjon Hamdiyning 1937-yil 10 yilga mehnat tuzatish lageriga hukm qilinib, 1942-yil 14-oktyabr kuni yurak yetishmovchiligi xastaligidan vafot etgan deb javob berilgan. Qizi Hidoyat Ahmedovaning 1964-yil 23 martda yozgan arizasiga esa Ahmadjon Hamdiy 1946-yil vafot etgan degan xabar kelgan.

BUXORO JADIDLARI: MUSTAQILLIK DAVRIDA TARIXIY HAQIQATGA QAYTISH

Ammo vaqt o'tib, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yurt ozodligi uchun kurashgan, xalqni marifatli qilish uchun harakat qilgan jadid ma'rifatparvarlarining qilgan ishlari munosib taqdirlana boshlandi. 1991-yil 25-sentyabrda Abdurauf Fitratga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berilgan. 1996-yili Fitratning 110 yillik yubileyi keng nishonlangan. Buxoro shahrida Fitrat bog'i va uy-muzeyi tashkil etilgan va haykal o'rnatilgan. Fitratning besh tomlik "Tanlangan asarlar" (Toshkent, 2000-2010) kitobi va turli asarlari nashr qilingan. Fitrat hayoti va ijodi haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan.

Yirik siyosatchi va davlat arbobi Fayzulla Xo'jayevning nomini abadiylashtirish uchun u istiqomat qilgan uyga Vazirlar Mahkamasining "2017-2027-yillarda qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari to'g'risida"gi qarori asosida bu go'sha "Boy savdogar xonadoni uy-muzeyi" nomi bilan faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik hukumatning tegishli qaroriga muvofiq, majmua "Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi" deb qayta nomlandi. Fayzulla Xo'jayev g'oyat og'ir sharoitlarda ishlab, millatning ma'naviyatini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini e'zozlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan edi.

Bundan tashqari, Prezident qaroriga binoan Buxoro shahridagi Hovli Poyon majmuasida Jadidlar merosi davlat muzeyi ochiladi. "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarorida ushbu muzey uchun Buxoroyi sharifning tanlanganini chinakam tarixiy adolat tantanasi, deyish mumkin. Zero, biz bilgan jadid taraqqiyparvarlarning barchasi millatni ma'rifatga boshlash dardini shu shaharda o'zlariga "yuqtirib", butun mol-u jonini shu yo'lga tikkan zotlardir. Jadidlar merosi davlat muzeyi uchun "Yosh buxoroliklar"

partiyasi yetakchilaridan bo'lgan Usmonxo'jadan meros qolgan Hovli Poyon majmuasining tanlanishi ham muhim ahamiyatga molik. Ustoz olim, professor Temur Xo'janing aytishicha, "bir zamonlar otasi aynan o'zi yashagan shu mahobatli xonadonning ikkinchi qavatida mahalla bolalari uchun maktab ochgan ekan. Oradan bir asrdan oshiq vaqt o'tdi. Ilm-ma'rifat masalasi hamon xalqimiz uchun dolzarb. Bu muzey Buxoroyi sharifning qadimiy ilm maskani mavqeyini tiklash maqsadida kurashga jonlarini tikkan zotlar xotirasiga ulkan ehtirom namunasi bo'lib xizmat qilishiga ishonchim komil. Muzey o'zida zamonaviylik va milliylikni mujassam etgan, dunyodagi jadidshunos olimlarning ham, qalbida millatimizga, Vatanga muhabbat hissi jo'sh urgan yoshlarimizning ham, ertamiz egasi bo'lgan bolajonlarimizning ham birday sevimli maskaniga aylanadi".

O'qituvchi: Yuqoridagi muzeyning ochilishi haqida tayyorlangan videorolikni tomosha qilsak.

<https://is.gd/cQ2p1U>

O'qituvchi: Xulosa qilib aytganda, bugun biz Buxoro jadidlari - Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va boshqa ma'rifatparvar ajdodlarimizning taqdiri, ularning ozodlik va ma'rifat yo'lidagi mashaqqatli kurashlarini yana bir bor yodga oldik. Bir paytlar qatag'on va zulm ostida qolgan bu ulug' zotlarning nomi mustaqillik tufayli tiklandi, merosi e'zozlandi, asarlari qayta nashr qilindi, haykallari va muzeylari barpo etildi. Bu jarayon - tarixiy adolatning tiklanishi va milliy o'zlikning yangidan uyg'onishi demakdir. Bugun Buxoroda tashkil etilayotgan Jadidlar merosi davlat muzeyi ham ana shu ehtiromning yorqin namunasi bo'lib, kelajak avlodni ilm-ma'rifatga, Vatanparvarlikka chorlaydigan muhim maskanga aylanmoqda. Jadidlarning hayoti bizga bir haqiqatni eslatadi: ilm va ma'rifat yo'lida qilinadigan har bir ezgu ish hech qachon zoye ketmaydi. Ular boshlab bergan taraqqiyot yo'li hozir ham dolzarb, hozir ham bizni oldinga chorlamoqda.

E'tiboringiz uchun rahmat!